



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



№4(5)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 224 sahifa,  
27-aprel, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### **EDITOR-IN-CHIEF:**

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### **DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### **EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor**

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Формирование здоровьесберегающей образовательной среды в начальной школе в условиях инклюзии.....	10
<b>Тургунова Нилуфар Абдусаломовна</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tez va aniq hisoblash ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari .....	16
<b>Dehqonova Maxliyoxon Shuhratjon, Musinjonova Dildoraxon Mahmudjon</b>	
Научно-педагогический анализ методов математического моделирования: численные и аналитические подходы в обучении студентов .....	19
<b>Мусурмонова Маъмура Оман кизи, Жураева Феруза Бахтиёр кизи, Сарсенбаева Мархабо Шадибековна</b>	
Inklyuziv ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy moslashuvini rivojlantirish texnologiyasi.....	26
<b>Turdimurodova Muazzam Muzaffarbek qizi</b>	
M. Tvenning "Tom Soyerning boshidan kechirganlari" romanida bolalar obrazining tasviri masalasi .....	29
<b>Sattarov Farrux Nuridinovich</b>	
Pedagogik dasturiy vositalar yordamida dars sifatini oshirish .....	35
<b>D. K. Ibadullayev</b>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning kasbga qiziqishlarini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati .....	41
<b>Isabekova Dilafruz Shermirzayevna</b>	
Молодёжь Узбекистана в системе политических процессов.....	46
<b>Юсупова Элеонора Фердинандовна</b>	
Математика o'qitishda zamonaviy yondashuvlar: vaziyatli tahlil va amaliy samaradorlik .....	51
<b>Matyaqubova Nazira Hikmat qizi</b>	
Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini sun'iy intellekt texnologiyalari asosida rivojlantirishning metodik modeli.....	54
<b>Choriyev Olmosbek Baxriddin o'g'li</b>	
Fan va tilni integratsiyalashgan holda o'qitish (CLIL) .....	60
<b>M. D. Boynazarova</b>	
Оптимизация показателей сердечного цикла у спортсменов при хроническом физическом перенапряжении посредством фармакологической поддержки .....	63
<b>Нормуратов Абдулла Саппарович</b>	
Chidamlilikka yo'naltirilgan sport turlarida uglevod va energiya almashinuvini farmakologik korreksiyasi....	67
<b>Normuratov Abdulla Sapparovich</b>	
O'quvchilarga dutor ijrochiligini o'rgatishning pedagogik yondashuvlari .....	70
<b>Sa'dullayev Og'abek Abdurashid o'g'li, Nazirullayeva Nodira Akmal qizi</b>	
Bolalar musiqa va san'at maktablarida individual va jamoa mashg'ulotlarini tashkil etish mexanizmlari (cholg'u ijrochiligi misolida).....	74
<b>Omonova Charos Baxodir qizi</b>	
Bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining o'quv-biluv faoliyatini motivatsiyalashda interfaol metodlardan foydalanish.....	79
<b>Saidova Zulfizar Norbobo qizi</b>	
O'qituvchining kognitiv egizagi (Digital Twin): sun'iy intellekt yordamida individual pedagogik uslubni modellashtirish.....	83
<b>Kuchkarova Feruza Qambaraliyevna</b>	
Abdusamad Boboxo'jayev rahbarligida tarix va arxeologiya institutining rivoji: 1964-yilgi arxiv hujjati misolida .....	91
<b>Abdullayev Botir Jabbor o'g'li</b>	
Maktab o'quvchilarining musiqiy idrokni shakllantirishning ijtimoiy va didaktik zarurati.....	93
<b>Abdumannan Maxammatov</b>	



“Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kalokagatiyani rivojlantirishning KAMOL modeli asosidagi pedagogik texnologiyasi” .....	97
<i>Abdurahmonova Dilorom Jovliyevna</i>	
Morphological Structure and Word Formation of Ecotourism Terminology: A Cross-Linguistic Analysis With Reference to the Uzbek Language.....	104
<i>Absamatova Charos</i>	
Fizika fanini o'tmda o'qitishda masalalar yechishning ilmiy-metodik ahamiyati .....	107
<i>Akmal Mustafoyev Isaqulovich, Munajat Mustafoyeva Oltibekovna</i>	
Kasbiy yo'naltirilgan ingliz tili darslarida metakognitiv strategiyalar asosida akademik nutqni rivojlantirish ..	111
<i>Allamuratov G'ofur Ashurovich</i>	
Maktabgacha ta'limda bolalarning mayda qo'l motorikasini rivojlantirish metodikasi .....	116
<i>Amanova Albina Dexqon qizi</i>	
Psychological Approaches in Teaching English in Preschool Education and their Effectiveness .....	120
<i>Berdiqulova Zamira Albertovna</i>	
The Role of Family, Education, and Community Systems in Shaping Individual Psychological Well-Being .	124
<i>Diibar Abdullayeva Ubaydullayevna, Iroda Panjiyeva Khayitovna</i>	
Nomoddiy madaniy merosning talaba-yoshlarni yuksak ma'naviyatli shaxs sifatida tarbiyalashdagi ahamiyati .....	127
<i>Erboyev Suxrob Abdusalomovich</i>	
Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida inson resurslarini boshqarishda muvozanatlashgan ko'rsatkichlar tizimidan foydalanishning nazariy asoslari .....	131
<i>Gulmira Jumanova</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o'stirishda badiiy adabiyotning dolzarbligi .....	135
<i>Hasanova X. Z.</i>	
Gospital ta'lim sharoitida ona tili fanini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi .....	139
<i>Hikmatov Bobobek Saydulloyevich</i>	
ASB bo'lgan bolalarda sensor buzilishlarning kognitiv va ijtimoiy rivojlanishga ta'siri .....	142
<i>Isaxanova Oybarchin Abduraxim qizi</i>	
Maktabgacha ta'limda kommunikativ faoliyat samaradorligining pedagogik mexanizmlari .....	146
<i>Maxmutazimova Yulduz Raxmatovna</i>	
David haykali ko'z bo'lagining qalamtasvirini bajarish usullari.....	149
<i>Mo'minov Baxtiyor Karamatovich</i>	
Ta'limda fanlararo integratsiyadan foydalanishning pedagogik va psixologik asoslari .....	154
<i>Oblakulova Nodira Abduvali qizi</i>	
Ellipslarni tasviriy san'at va muhandislik grafikasida yasash metodikasi.....	160
<i>Sheraliyev Sanjarbek Karimberdiyevich</i>	
Kommunikativ strategiyaning yuzaga kelish omillari .....	170
<i>Normaxmatova Feruza Ruziboyevna</i>	
Umumta'lim maktab musiqa madaniyati darslarida raqamli texnologiyalardan foydalanish muammo va yechimlari .....	174
<i>O'rishboyeva Xumora O'rol qizi</i>	
Maktabda jismoniy tarbiya darslarida futbol elementlaridan foydalanib 10-11 yoshli bolalarda tezkor-kuch qobiliyatlarini rivojlantirish uslubiyati .....	177
<i>Qurbonbayeva Maftuna G'ayrat qizi</i>	
Maktabda darsdan tashqari futbol to'garaklarida o'quvchilarning tezkor-kuch qobiliyatlarini takomillashtirish .....	182
<i>Ro'ziboyeva Fotima Quدرات qizi</i>	
Matn ustida ishlash samaradorligini baholash mezonlari .....	187
<i>Sadarova Nilufar</i>	
Neyroestetik stimulning yosh dinamikasidagi roli: kognitiv emotsional sferani qayta tashkil etish mexanizmlari.....	193
<i>Salaxidinova Xolida Xaliljonovna</i>	

Kasbiy ta'limda o'quvchilarning psixologik va axloqiy sifatlari .....	198
<a href="#">Salomov Abdurasul Axmadovich</a>	
Funksiyaning hosilasi yordamida o'sish va kamayish oraliqlarini aniqlash metodikasi .....	201
<a href="#">Sherzad Eshjanovich Bekchanov, Shohida Sadullaevna Ziyadullaeva, Abdusalom A. Xudoyberdiev</a>	
Bo'lajak tarbiyachilarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishda psixologik treninglarning nazariy va amaliy asoslari.....	205
<a href="#">Sojida Safarova Saxadin qizi</a>	
Destruktiv xulq-atvor psixologik va pedagogik qarovsizlik oqibati sifatida.....	207
<a href="#">Umirzoqova Shodiya Lutfullo qizi</a>	
Maktabgacha ta'limda bolalar bilan innovatsion texnologiyalar yordamida ekologik omillarni singdirish .....	210
<a href="#">Xoldorova Mashxura G'ulomovna</a>	
Роль антиоксидантной системы в повышении работоспособности спортсменов .....	214
<a href="#">Нурбаев Бахтиёр Широнович</a>	
Shaxs irodaviy sohasini rivojlantirishning psixologik determinantlari.....	217
<a href="#">To'ychiyeva Shoyista Jumabayevna</a>	



# KASBIY YO'NALTIRILGAN INGLIZ TILI DARSLARIDA METAKOGNITIV STRATEGIYALAR ASOSIDA AKADEMIK NUTQNI RIVOJLANTIRISH

Allamuratov G'ofur Ashurovich

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti  
 Ingliz tili kafedrası dotsenti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada kasbiy yo'naltirilgan ingliz tili darslarida talabalarning akademik nutqini metakognitiv strategiyalar asosida rivojlantirish masalasi yoritilgan. Tadqiqotda metakognitiv strategiyalar talabaniing o'z o'quv faoliyatini rejalashtirishi, nazorat qilishi, baholashi va takomillashtirishi bilan bog'liq ongli o'rganish mexanizmi sifatida talqin qilinadi. Maqolada akademik nutqni rivojlantirishda rejalashtirish, monitoring, refleksiya, qayta tahrirlash, o'zini baholash va tengdoshlar fikri asosida nutqiy mahsulotni takomillashtirish jarayonlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda metakognitiv yondashuvning ingliz tilida ilmiy fikr bildirish, dalillash, akademik matn yaratish va kasbiy muloqotga tayyorlashdagi metodik imkoniyatlari asoslab beriladi. Maqola natijalarida metakognitiv strategiyalar akademik nutqning mazmuniy izchilligi, terminologik aniqligi, mantiqiy tuzilishi va kommunikativ samaradorligini oshirishga xizmat qilishi ko'rsatiladi.

**Kalit so'zlar:** metakognitiv strategiya, akademik nutq, kasbiy yo'naltirilgan ingliz tili, refleksiya, o'zini baholash, nutqiy kompetensiya, ingliz tili metodikasi.

**Abstract:** This article examines the development of students' academic speech in professionally oriented English classes through metacognitive strategies. Metacognitive strategies are interpreted as a conscious learning mechanism related to planning, monitoring, evaluating and improving one's own learning activity. The article analyzes the processes of planning academic speech, monitoring oral and written performance, reflection, revision, self-assessment and peer feedback. The study substantiates the methodological potential of the metacognitive approach in developing students' ability to express scientific ideas in English, justify their position, produce academic texts and participate in professional communication. The findings indicate that metacognitive strategies improve the coherence, terminological accuracy, logical organization and communicative effectiveness of academic speech.

**Key words:** metacognitive strategy, academic speech, professionally oriented English, reflection, self-assessment, speech competence, English language teaching methodology.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается проблема развития академической речи студентов на занятиях профессионально ориентированного английского языка на основе метакогнитивных стратегий. Метакогнитивные стратегии трактуются как осознанный механизм обучения, связанный с планированием, контролем, оцениванием и совершенствованием собственной учебной деятельности. В статье анализируются процессы планирования академического высказывания, мониторинга речевой деятельности, рефлексии, редактирования, самооценки и использования обратной связи. Обосновываются методические возможности метакогнитивного подхода в развитии умения выражать научную мысль на английском языке, аргументировать позицию, создавать академический текст и участвовать в профессиональной коммуникации. Результаты показывают, что метакогнитивные стратегии способствуют повышению содержательной последовательности, терминологической точности, логической структуры и коммуникативной эффективности академической речи.

**Ключевые слова:** метакогнитивная стратегия, академическая речь, профессионально ориентированный английский язык, рефлексия, самооценка, речевая компетенция, методика преподавания английского языка.

## KIRISH

Zamonaviy oliy ta'limda ingliz tilini o'qitish jarayoni tobora kasbiy va akademik yo'nalishga ega bo'lib bormoqda. Talaba ingliz tilini faqat kundalik muloqot vositasi sifatida emas, balki ilmiy axborotni o'qish, tahlil qilish, muhokama qilish, yozma va og'zaki shaklda asosli fikr bildirish vositasi sifatida ham egallashi zarur. Ayniqsa, oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar uchun akademik nutqni rivojlantirish ingliz tili metodikasining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki akademik nutq talabaniing ilmiy tushunchalarni

anglash, ularni mantiqiy ketma-ketlikda bayon qilish, dalillar asosida fikr yuritish va professional kontekstda kommunikativ vazifani bajarish qobiliyati bilan bevosita bog'liqdir.

Akademik nutq oddiy og'zaki yoki yozma nutqdan mazmuniy aniqligi, dalillanganligi, terminologik izchilligi, mantiqiy tuzilishi va uslubiy betarafligi bilan farqlanadi. Talaba ingliz tilida akademik nutq hosil qilishi uchun faqat grammatik qoidalarni bilishi yetarli emas. U fikrni qanday rejalashtirish, qanday dalil tanlash, matn qanday tashkil etish, nutqiy xatolarni qanday aniqlash va o'z natijasini qanday baholashni ham bilishi kerak. Shu nuqtayi nazardan metakognitiv strategiyalar akademik nutqni rivojlantirishda muhim metodik vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Metakognitsiya tushunchasi J.H.Flavell tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan bo'lib, u shaxsning o'z bilish jarayonlarini anglash, kuzatish va boshqarish qobiliyatini ifodalaydi <sup>[1]</sup>. Til o'rganish jarayonida bu tushuncha talabani o'z nutqiy faoliyatini ongli rejalashtirishi, bajarish jarayonida nazorat qilishi va yakunda baholashi bilan bog'liqdir. Demak, metakognitiv yondashuv talabani passiv bilim oluvchi emas, balki o'z o'rganish jarayonini boshqaruvchi faol subyekt sifatida shakllanishini ta'minlaydi.

Kasbiy yo'naltirilgan ingliz tili darslarida metakognitiv strategiyalardan foydalanish akademik nutqni rivojlantirish uchun keng imkoniyat yaratadi. Bunda talaba avvalo nutqiy vazifani anglaydi, maqsadni belgilaydi, zarur leksik va grammatik vositalarni tanlaydi, fikrni tuzadi, nutq jarayonida o'zini nazorat qiladi, yakunda esa nutqiy mahsulotni baholaydi va takomillashtiradi. Mazkur jarayon talabani ingliz tilida mustaqil, izchil va dalillangan fikr bildirish kompetensiyasini rivojlantiradi.

Maqolaning obyekti - kasbiy yo'naltirilgan ingliz tili darslarida akademik nutqni rivojlantirish jarayoni.

Predmeti - talabalarning akademik nutqini metakognitiv strategiyalar asosida shakllantirishning metodik imkoniyatlari.

Maqolaning maqsadi - metakognitiv strategiyalar asosida akademik nutqni rivojlantirishga doir metodik yondashuvlarni asoslash va ularni o'quv jarayonida qo'llash yo'llarini yoritishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun metakognitiv strategiyalarning nazariy asoslarini tahlil qilish, akademik nutqning tarkibiy xususiyatlarini aniqlash, metodik mashqlar tizimini ishlab chiqish hamda amaliy tavsiyalarni shakllantirish vazifalari belgilandi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Metakognitiv strategiyalar masalasi xorijiy til ta'limida keng o'rganilgan yo'nalishlardan biridir. J.H. Flavell metakognitsiyani insonning o'z bilish jarayonlari haqidagi bilimlari va ushbu jarayonlarni nazorat qilish qobiliyati sifatida izohlaydi <sup>[1]</sup>. Ushbu yondashuv til o'rganishda ayniqsa muhimdir, chunki xorijiy tilni egallash nafaqat tashqi ta'lim ta'siri, balki talabani ichki o'quv strategiyalari, o'zini kuzatishi va xatolarni tuzatish qobiliyati bilan ham bog'liq.

J.M.O'Malley va A.U.Chamot ikkinchi tilni o'rganishda o'quv strategiyalarini kognitiv, metakognitiv va ijtimoiy-affektiv strategiyalarga ajratgan. Ularning tadqiqotida metakognitiv strategiyalar rejalashtirish, monitoring va baholash jarayonlari bilan bog'lanadi <sup>[2]</sup>. Bu tasnif akademik nutqni rivojlantirishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Chunki akademik nutq rejasiz, nazoratsiz va qayta ishlashsiz shakllanmaydi; u ko'p bosqichli ongli faoliyat mahsulidir.

R.Ellis ikkinchi tilni o'zlashtirish jarayonida o'quvchining e'tibori, qayta ishlash faoliyati va til materialini ongli egallashi muhimligini ta'kidlaydi <sup>[3]</sup>. Ellis qarashlari akademik nutqni rivojlantirishda til materialini shunchaki yodlash emas, balki uni kommunikativ vazifaga mos tanlash va qayta ishlab qo'llash zarurligini ko'rsatadi.

M.Swain tomonidan ilgari surilgan output hypothesis nazariyasiga ko'ra, til o'rganishda faqat tushunarli input yetarli emas; o'quvchi o'z fikrini og'zaki yoki yozma shaklda ishlab chiqish jarayonida til tizimini faol sinovdan o'tkazadi <sup>[4]</sup>. Bu qarash akademik nutqni rivojlantirishda ayniqsa ahamiyatlidir. Talaba ilmiy fikrni ingliz tilida ifodalash jarayonida lug'at, grammatik tuzilma, dalillash shakli va matn izchilligini ongli ravishda tanlaydi.

K.Hyland akademik ingliz tili va akademik yozuvni o'rgatishda janr, diskurs, auditoriya va kommunikativ maqsadni hisobga olish zarurligini asoslaydi <sup>[5]</sup>. Uning tadqiqotlari akademik nutqni faqat grammatik to'g'rilik emas, balki ijtimoiy va kasbiy kontekstga mos muloqot shakli sifatida tushunish imkonini beradi.

P.Nation leksik kompetensiya va so'z boyligini rivojlantirishni til o'rganishning asosiy omillaridan biri sifatida ko'rsatadi <sup>[6]</sup>. Akademik nutqda terminologik aniqlik muhim bo'lgani sababli, talabalar kasbiy terminlarni kontekstda anglash, ularni ilmiy fikr tarkibida qo'llash va semantik jihatdan farqlash ko'nikmalariga ega bo'lishlari zarur.

D.Larsen-Freeman til o'rganishni murakkab, dinamik va o'zgaruvchan tizim sifatida talqin qiladi <sup>[7]</sup>. Bu yondashuv akademik nutqni rivojlantirishda bir martalik mashq emas, balki muntazam takomillashib boradigan ko'p bosqichli jarayon zarurligini ko'rsatadi.

Shuningdek, raqamli ta'lim muhitida til o'rganish masalalari A.Kukulska-Hulme ishlarida keng yoritilgan. U mobil va raqamli texnologiyalar til o'rganishni moslashuvchan, individual va interaktiv jarayonga aylantirishini



ta'kidlaydi [8]. Bu esa akademik nutqni rivojlantirishda elektron portfolio, onlayn yozuv muharrirlari, avtomatik tahlil vositalari va raqamli refleksiya jurnallaridan foydalanish imkonini beradi.

Mazkur tadqiqot yuqoridagi ishlar bilan bog'liq bo'lsa-da, ulardan farqli ravishda asosiy e'tiborni aynan kasbiy yo'naltirilgan ingliz tili darslarida akademik nutqni metakognitiv strategiyalar asosida rivojlantirishning metodik mexanizmlariga qaratadi. Ya'ni maqolada metakognitiv strategiyalar nazariy tushuncha sifatida emas, balki amaliy dars jarayonida qo'llanadigan metodik vositalar tizimi sifatida tahlil qilinadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolani tayyorlashda nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, metodik modellashtirish va didaktik loyihalash usullaridan foydalanildi. Nazariy tahlil metakognitsiya, akademik nutq, ikkinchi tilni o'rganish strategiyalari va kasbiy yo'naltirilgan ingliz tili bo'yicha ilmiy manbalarni o'rganishga xizmat qildi. Qiyosiy tahlil orqali turli olimlarning yondashuvlari o'zaro solishtirildi va ularning akademik nutqni rivojlantirishdagi metodik ahamiyati aniqlandi.

Metodik modellashtirish asosida akademik nutqni rivojlantirishning bosqichli modeli ishlab chiqildi. Ushbu model quyidagi ketma-ketlikka asoslanadi: maqsadni anglash, nutqni rejalashtirish, til vositalarini tanlash, nutqiy mahsulot yaratish, monitoring qilish, qayta tahrirlash va yakuniy baholash. Har bir bosqich talabning metakognitiv faolligini kuchaytirishga qaratilgan.

Didaktik loyihalash usuli yordamida kasbiy yo'naltirilgan ingliz tili darslari uchun mos mashqlar tizimi ishlab chiqildi. Mashqlar uch guruhga ajratildi: tayyorlovchi metakognitiv mashqlar, akademik nutqni shakllantiruvchi mashqlar va reflektiv-baholash mashqlari. Tayyorlovchi mashqlar talabning mavzu, maqsad, auditoriya va nutqiy vazifani anglashiga xizmat qiladi. Shakllantiruvchi mashqlar ilmiy fikrni tuzish, dalillash, terminlardan foydalanish va matnni tashkil etish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Reflektiv-baholash mashqlari esa o'zini baholash, tengdoshlar fikrini tahlil qilish va nutqiy mahsulotni qayta ishlashga qaratiladi.

Metodologik jihatdan maqola quyidagi tamoyillarga asoslandi: ongli o'rganish, bosqichlilik, kasbiy kontekstga yo'naltirilganlik, reflektivlik, individual yondashuv va kommunikativ maqsadlilik. Ushbu tamoyillar akademik nutqni rivojlantirishni faqat til mashqi emas, balki talabning fikrlash, rejalashtirish va baholash faoliyati bilan bog'liq kompleks pedagogik jarayon sifatida tashkil etishga imkon beradi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, akademik nutqni rivojlantirishda metakognitiv strategiyalar uchta asosiy funksiyani bajaradi.

**Birinchi funksiya - rejalashtiruvchi funksiya.** Bu bosqichda talaba nutqiy vazifani tushunadi, mavzu doirasini belgilaydi, asosiy fikrni aniqlaydi, dalillarni tanlaydi va nutq tuzilmasini oldindan loyihalashtiradi. Rejalashtirish akademik nutqning tartibli, mantiqiy va maqsadga muvofiq bo'lishini ta'minlaydi.

**Ikkinchi funksiya - monitoring funksiyasi.** Nutqiy faoliyat jarayonida talaba o'z fikrining izchilligini, grammatik to'g'riligini, terminlarning mosligini, dalillarning yetarililigini va kommunikativ maqsadga mosligini kuzatib boradi. Bu jarayon akademik nutqda xatolarni kamaytiradi va talabning mas'uliyatli o'quv subyekti sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

**Uchinchi funksiya - baholash va takomillashtirish funksiyasi.** Talaba nutqiy mahsulotni yaratgandan so'ng uni o'z mezonlari asosida baholaydi, kuchli va zaif tomonlarini aniqlaydi, zarur joylarni qayta ishlaydi. Bu bosqich akademik nutq sifatini oshirishda muhim o'rin tutadi.

Quyidagi jadval metakognitiv strategiyalar asosida akademik nutqni rivojlantirish bosqichlarini ko'rsatadi.

Bosqich	Metakognitiv faoliyat	Talabning amaliy harakati	Kutiladigan natija
1-bosqich	<b>Maqsadni aniqlash</b>	Mavzu, auditoriya va nutqiy vazifani belgilaydi	Nutqiy faoliyat yo'nalishi aniqlanadi
2-bosqich	<b>Rejalashtirish</b>	Tezis, dalil va xulosa tuzilmasini ishlab chiqadi	Akademik nutqning mantiqiy rejasi shakllanadi
3-bosqich	<b>Monitoring</b>	Termin, grammatika va fikr izchilligini tekshiradi	Xatolar vaqtida aniqlanadi
4-bosqich	<b>Refleksiya</b>	O'z nutqiy mahsulotini baholaydi	O'quvchi o'z kuchli va zaif tomonlarini anglaydi
5-bosqich	<b>Qayta tahrirlash</b>	Matn yoki nutqni takomillashtiradi	Akademik nutq sifati oshadi

Tahlillar asosida aniqlanishicha, akademik nutqni rivojlantirishda metakognitiv strategiyalarni qo'llash talabalarining bir necha ko'nikmalarini kompleks rivojlantiradi. Birinchidan, talabalar akademik fikrni rejalashtirishga o'rganadi. Ular mavzuga doir asosiy fikrni ajratadi, uni dalillar bilan bog'laydi va nutqiy tuzilmani oldindan belgilaydi. Ikkinchidan, talabalar o'z nutqiy faoliyatini nazorat qilish ko'nikmasiga ega bo'ladi. Bu esa ularda grammatik, leksik va mazmuniy xatolarni mustaqil aniqlash qobiliyatini rivojlantiradi. Uchinchidan, reflektiv baholash orqali talabalar o'z ta'lim natijalariga tanqidiy yondashishni o'rganadi.

Kasbiy yo'naltirilgan ingliz tili darslarida akademik nutqni rivojlantirish uchun quyidagi mashqlar samarali deb topiladi.

**Birinchi mashq turi - "Academic Speech Plan" mashqi.** Bunda talabaga kasbiy mavzu beriladi va u nutq rejasini tuzadi. Rejada kirish fikri, asosiy dalillar, terminlar va xulosa ko'rsatiladi. Bu mashq talabaning rejalashtirish strategiyasini rivojlantiradi.

**Ikkinchi mashq turi - "Self-monitoring Checklist" mashqi.** Talaba yozma yoki og'zaki nutqdan so'ng maxsus mezonlar asosida o'z ishini tekshiradi. Mezonlar quyidagilarni o'z ichiga oladi: mavzuga moslik, fikr izchilligi, terminlardan foydalanish, grammatik aniqlik, dalillarning asoslanganligi va xulosa mavjudligi.

**Uchinchi mashq turi - "Peer Review Discussion" mashqi.** Talabalar bir-birining akademik nutqini tinglaydi yoki o'qiydi, keyin belgilangan mezonlar asosida fikr bildiradi. Bu mashq metakognitiv monitoring bilan birga kommunikativ kompetensiyani ham rivojlantiradi.

**To'rtinchi mashq turi - "Reflective Academic Journal" mashqi.** Talaba har bir darsdan so'ng qisqa reflektiv yozuv tayyorlaydi. Unda u quyidagi savollarga javob beradi: men bugun nimani o'rgandim? Qaysi fikrni ingliz tilida ifodalash qiyin bo'ldi? Qaysi terminlardan to'g'ri foydalandim? Keyingi safar nimani yaxshilashim kerak?

**Beshinchi mashq turi - "Revision after Feedback" mashqi.** Talaba o'qituvchi yoki tengdoshlar fikri asosida o'z matnini qayta tahrirlaydi. Bu mashq akademik nutqni bir martalik mahsulot emas, balki takomillashib boradigan jarayon sifatida anglashga yordam beradi.

Tahlil natijalaridan kelib chiqib, metakognitiv strategiyalar asosida akademik nutqni rivojlantirishning quyidagi metodik modeli taklif etiladi:

Model komponenti	Mazmuni	Metodik vosita
<b>Maqsadli komponent</b>	Akademik nutqni rivojlantirish	Kasbiy mavzular, ilmiy savollar
<b>Mazmuniy komponent</b>	Terminlar, akademik iboralar, dalillash vositalari	Akademik matnlar, glossariy
<b>Jarayonli komponent</b>	Rejalashtirish, monitoring, refleksiya	Checklist, journal, peer review
<b>Texnologik komponent</b>	Raqamli qo'llab-quvvatlash	Google Docs, Grammarly, LMS
<b>Natijaviy komponent</b>	Izchil va dalillangan akademik nutq	Taqdimot, esse, munozara

Mazkur model akademik nutqni rivojlantirishda talabaning mustaqil fikrlashi, o'zini boshqarishi va nutqiy mahsulotni takomillashtirishini ta'minlaydi. Eng muhimi, bu yondashuv talabaning ingliz tilidagi akademik nutqni faqat baholash obyekti emas, balki rivojlanadigan, tahrirlanadigan va ongli boshqariladigan faoliyat sifatida tashkil etadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Kasbiy yo'naltirilgan ingliz tili darslarida akademik nutqni rivojlantirish zamonaviy oliy ta'limning muhim metodik vazifalaridan biridir. Akademik nutq talabaning ilmiy fikrni anglash, terminlardan aniq foydalanish, dalillar asosida fikr bildirish, mantiqiy tuzilma yaratish va kommunikativ maqsadga erishish qobiliyatlarini o'z ichiga oladi. Ushbu ko'nikmalarni shakllantirishda metakognitiv strategiyalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahlillar asosida quyidagi xulosalarga kelindi. Birinchidan, metakognitiv strategiyalar akademik nutqni ongli tashkil etishga xizmat qiladi. Ikkinchidan, rejalashtirish, monitoring va baholash jarayonlari talabaning nutqiy faoliyatini sifat jihatdan yaxshilaydi. Uchinchidan, reflektiv mashqlar talabaning mustaqil o'rganish va o'zini baholash ko'nikmalarini rivojlantiradi. To'rtinchidan, raqamli vositalar akademik nutqni tahlil qilish, tahrirlash va takomillashtirish jarayonini samarali tashkil etishga imkon beradi.

Maqola natijalaridan kelib chiqib quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Kasbiy yo'naltirilgan ingliz tili darslarida akademik nutqni rivojlantirish uchun metakognitiv strategiyalar alohida metodik blok sifatida kiritilishi lozim.



2. Har bir akademik nutq topshirig'i rejalashtirish, bajarish, monitoring va refleksiya bosqichlari asosida tashkil etilishi maqsadga muvofiq.
3. Talabalar uchun self-assessment checklist, peer-review form va reflective journal kabi vositalar muntazam qo'llanishi kerak.
4. Akademik nutqni rivojlantirishda Google Docs, Grammarly, Moodle, Padlet kabi raqamli vositalardan maqsadli foydalanish tavsiya etiladi.
5. Baholashda faqat grammatik to'g'rilik emas, balki fikr izchilligi, terminologik aniqlik, dalillash sifati va reflektiv o'sish ham hisobga olinishi zarur.

Shunday qilib, metakognitiv strategiyalar asosida akademik nutqni rivojlantirish talabalarning ingliz tilidagi kasbiy-kommunikativ tayyorgarligini kuchaytiradi, ularni ilmiy muloqotga tayyorlaydi va mustaqil ta'lim olish madaniyatini shakllantiradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Flavell J.H. Metacognition and cognitive monitoring: A new area of cognitive-developmental inquiry // *American Psychologist*. – 1979. – Vol. 34, № 10. – P. 906–911
2. O'Malley J.M., Chamot A.U. *Learning Strategies in Second Language Acquisition*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1990. – 260 p.
3. Ellis R. *The Study of Second Language Acquisition*. – Oxford: Oxford University Press, 1994. – 824 p.
4. Swain M. Communicative competence: Some roles of comprehensible input and comprehensible output in its development // *Input in Second Language Acquisition* / Eds. S. Gass, C. Madden. – Rowley, MA: Newbury House, 1985. – P. 235–253.
5. Hyland K. *English for Academic Purposes: An Advanced Resource Book*. – London; New York: Routledge, 2006. – 356 p.
6. Nation I.S.P. *Learning Vocabulary in Another Language*. – 2nd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2013. – 640 p.
7. Larsen-Freeman D., Anderson M. *Techniques and Principles in Language Teaching*. – 3rd ed. – Oxford: Oxford University Press, 2013. – 272 p.
8. Kukulska-Hulme A. *Mobile Learning and Language Learning* // *The Encyclopedia of Applied Linguistics*. – Oxford: Wiley-Blackwell, 2013.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №4(5)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.